

XALQ ERTAKLARI

Maishiy
ertaklar

Sehrli
ertaklar

Hayvonlar
haqidagi ertaklar

Och bo'ri

O'zbek xalq ertagi



Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bir och bo'ri bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni u don yeb yurgan bir xo'rozni ko'rib qolibdi. Bo'ri xo'rozni ushlash payiga tushibdi. Xo'roz qanotini yozib "qaq-qaq", deyman deb turgan ekan, bo'ri lip etib kelib xo'rozning qanotidan tishlab olibdi. Xo'roz qarasa, bo'ri uni mahkam ushlab turgan emish. Shunda xo'roz so'rabdi:

- Ey bo'ri, meni nima qilmoqchisan?
- Men seni yeyman, – debdi bo'ri.
- Meni shundayligimcha yesang, hecham maza qilmaysan. Agar yeydigan bo'lsang, kashnich va piyoz bilan qo'shib yegin. Shunda haqiqiy mazani his qilasan, – debdi xo'roz.

Bo'ri:

– Kashnich bilan piyozni qayerdan topaman? – debdi.

Xo'roz:

– Kashnich bilan piyozni shu yaqin oradagi qishloqdan topasan. Sen borib kelaver, men seni shu yerda poylab turaman, – debdi. Bo'ri kashnich



va piyoz izlab ketishi bilanoq xo'roz parillab uchib ketibdi.

Bo'ri kashnich va piyozni qiynalib-qiynalib, zo'rg'a topib kelibdi. Qarasa, xo'roz yo'q emish. U yoqqa yuguribdi, bu yoqqa yuguribdi, oxiri xo'rozni topolmay, nochor yo'lga tushibdi.

Bo'ri bir yerdan o'tib ketayotgan ekan, bir qo'zi o'tlab yurganini ko'ribdi, sekin kelib qo'zini ushlab olibdi.

Qo'zi:

– Ey bo'ri, meni nima qilmoqchisan? – deb so'rabdi.

Bo'ri:

– Men seni yemoqchiman, – deb javob beribdi.

– Mening quruq go'shtimni yeganing bilan hecham maza qilmaysan. Yaxshisi, borib konning tuzidan olib kel, shundan keyin go'shtimni maza qilib yeb, xumordan chiqasan, – debdi qo'zi.

Bo'ri qo'zini shu yerda qoldirib, kondan tuz olib kelgani jo'nabdi. Shu paytdan foydalanib qo'zi qochib qolibdi. Bo'ri sarson-sargardon bo'lib kondan tuz olib kelsa, qo'zi qochib ketgan emish. Qo'zini rosa izlabdi, oxiri topolmay yana yo'lga tushibdi.



mahkam – zo'r kuch bilan, qattiq

nochor – chorasiz, noiloj

sarson-sargardon – ovora



1. Ertak qanday boshlandi?
2. Xo'roz va bo'ri bilan qanday voqea yuz beribdi?
3. Qo'zi bo'ridan qanday qutulibdi?
4. Nima deb o'ylaysiz, bo'rining och qolishiga nima sabab bo'lgan?



Ushbu gaplar qaysi qahramonga tegishli?

Agar yeydigan bo'lsang, kashnich va piyoz bilan qo'shib yegin. Shunda haqiqiy mazani his qilasan.

Yaxshisi, borib konning tuzidan olib kel, shundan keyin go'shtimni maza qilib yeb, xumordan chiqasan.

Men seni yeyman.

Topishmoqlarning javobini toping.

- | | |
|---|------------------------------------|
| 1. Kuchukday ko'rinishi,
Pichoqday o'tkir tishi.
Vahshiy hayvondir o'zi,
Yegani qo'y va qo'zi. | 2. To'rt oyoqli,
Temir tuyoqli. |
| | 3. Erta turadi,
Jar chaqiradi. |



**Ertakning mazmunini so'zlab bering.
Ertak mazmuniga mos rasm chizing.**